

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

BOLALAR SONI KO'P GURUHLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA NIMALARNI E'TIBORGA OLISH KERAK.

Zokirova Marjona Duvlon qizi ,

O'mirova Husniya Akbar qizi

Anatatsiya : Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat va bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlarda ingliz tili mashg'ulotlarni o'tish tartibi, hamda bolalarga ingliz tili o'rgatishda guruh hajmi kichik bo'lishi kerakligi va nutqiy muloqotni rivojlantirish ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, o'yin, ta'lim-tarbiya, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Bizga ma'lumki qadimdan chet tillarini o'rganishga talab katta bo'lib kelmoqda. Xususan bugungi kunda ham muhtaram prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning may oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligiga asos solgan bo'lib, bu idora zimmasiga ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish usullarini tadbiq etish, samarali dastur va darsliklar ishlab chiqarish vazifasi yuklatilgan. Bolalarga chet tillarini o'rgatishda bolaning yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, bolalarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan kichik yoshdagi bolalarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv, ko'p vaqtni olmaydi maxsus jihozlarni talab etmaydi, lekin yaxshi natija beradi va og'zaki nutqni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Maslan; "Bu nima?", "Bu kim?", "Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borishi zarur. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab, boshqa turdagi o'yinlar turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin.

Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlar ham mavjud bu guruhlarda ingliz tili mashg'ulotlarni kichik kichik guruhlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi buning natijasida bolalar o'rtasida o'zaro raqobat, qilish tushunchasi hamda intilish, chaqqonlik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlar ham birgalikda rivojlanib boradi. Psixolog olimlarimiz tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki ingliz tili mashg'ulotlarini guruhdagi bolalar soni 15 ga yaqin bo'lsa ham bolalarga tilni o'rgatish samarasiz hisoblanadi degan sababi har bir bola bilan ingliz tili rahbari alohida savol javob qilishi, va amaliy, ijodiy, didaktik, harakatli o'yinlarda barcha bolalar birdek qatnashish kerakligini inobatga olishi kerak. Guruhda bolalar soni 10 tadan oshmasa ingliz tili rahbari ham bemalol barcha bolalar bilan alohida ishlashi uchun yetarli hisoblanadi. Ingliz tili mashg'ulotlarining davomiyligi barcha yosh bosqichlarida turlicha olib boriladi masalan besh yoshli bolalarga 20 daqiqa, olti yoshli bolalarga esa 25 daqiqadan oshmasligi lozim. Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda ijodiy o'yinlardan hamda harakatli didaktik o'yinlardan keng tarzida foydalanish lozim sababi katta va tayyorlov guruh bolalari kichik va o'rta guruh bolalariga nisbatan ancha harakatchan bo'lishi, lug'at boyligining ko'pligi bilan farqlanib turadi. Masalan katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda o'yinning turlarida juda keng foydalanamiz.

Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'qitishda biz Amerika Qo'shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya'ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki bu bosqichda yosh bolalar o'zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo'llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o'rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun xizmat qiladi.

Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davrlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan: maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi

buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun sinfdagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi. Albatta, o'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarning metodikasi katta rol o'ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib uni gapirishga undaysiz, o'quvchilar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi. Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Hozirgi kunda Xitoylik bog'cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli bog'chalardagi o'qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan. Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali: O'qituvchi bolalarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel, kitobni och, turing, doskaga qarang, kabi gaplarni ishlatganda imo-ishoralardan foydalansa bolaga bu gaplar tushunarli bo'ladi. Imo-ishora ingliz tilining eng muhim o'rgatish usulidir. Xitoylik bog'cha bolalariga inglizcha biror narsaning osongina xitoycha nomini topishga yordam beradi. Deyarli barcha tarbiyachi tayyarlov jarayonida hayvon ishoralari eng oson usul ekanligini biladi. (dog) kuchukcha – tarbiyachi egilgan holatda, kerak bo'lsa tilini chiqarib bolalarga it qiyofasini shakllantirib beradi; (rabbit) quyoncha-qo'lchasini ko'ksiga egig qo'ygan holatda sakrab ifoda etadi; (monkey) maymuncha-bir oz egilib yurgan holatda o'z qiyofasini namoyish etadi. Taqlid qilish hislati bo'lgan bolalar uchun bu judayam qiziq tuylib, shu zahoti ifoda etilgan hayvon nomini aytishga majbur qiladi. bu esa yangi o'tilgan so'zlarni eslab qolishga turtki bo'ladi.

Multimedia orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bolalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko'tarish va ularning e'tiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bolalarning tilga bo'lgan ko'nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin. Agarda mavzuyimiz "Animals" bo'lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e'tibor qaratishadi, va shu zahotiyot cat, tiger, bear....deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi. Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davrlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Masalan, avvalam bor darsda bolalarni diqqatini bitta joyga ya'ni darsga qaratib olish kerak. 3-4 yoshdagi bolalarning hissiyotlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ya'ni qo'rquv, jahl, qayg'urish ularning yuzidan juda yaqqol ko'rmadi. Ular boshqa bolalar bilan urushib qolishi, nimagadir totishib qolishi va boshqa biriga qayg'urishlari mumkin. 5-6 yoshdagi bolalar esa o'z harakatlarida hissiyotlarni bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Shu asosda har bir bolaga bir xil tarzda dars o'ta bilish kerak. Darslarni xursandlichik va o'yinlar tarzida olib borsa yosh bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish uyg'onadi va vazifalarni ham vaqtida qilishga va darslarda faol qatnashishga harakat qiladi. Maktabgacha bo'lgan bolalarning xotiralari o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan nasralarni beixtiyor eslarida saqlab qoladilar. Ya'ni bog'cha yoshdagi bolalarga dars o'tishning o'z metodikasi bor. Bu yoshdagi bolalar ko'rgan va eshitgan narsalarini juda tez yod olishishadi. Shu yo'l natijasida bolalarga ingliz tiliga oid qiziqarli videolar, ashulalar, musobaqalar, o'yinlar orqali darslarni qiziqarli o'tqazish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularga musobaqalarda g'olib bo'lgan bolalarga har xil sovg'alar bilan taqdirlansa, boshqa bolalar ham shu bolaga tanqid qilish orqali ham o'rganib boradi. Har bir darslarda bolalarga ingliz tiliga oid qisqa janrdagi qiziqarli va kulguli bo'lgan multfilmlar yoki video rolliklar qo'yilsa ulardagi obrazlarning ish harakatlari orqali ham bolalar ularni mazmunini tushunishga harakat qila boshlashadi. Asosan, bolalar darslarda zerikib qolmasligi kerak bo'ladi, chunki bola zerika boshlasa undagi til o'rganishga bo'lgan qiziqishi kamayib boradi va u o'rganishni xohlamay qoladi. Dars jarayonida ham har xil o'yin va musobaqalar ham tashkillashtirish kerak. Masalan, ingliz tilining harflarini yod olishda, ingliz tilida International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> April 15th -16th 2022 2 she'rlar yod olishda juda ko'plab o'yinlar tashkillashtirsa bo'ladi. N.M.Aksarinaning takidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoitda bo'lishi lozim.

“Pantomima” o‘yinida 3 kishi ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror bir so‘z aytmasdan imoishoralar, harakatlar orqali, so‘zlarni qolgan guruh a‘zolariga tushuntirish kerak. Bu o‘yinlarning ham o‘ziga tegishli bo‘lgan vazifalari bor. Masalan, mana bu “Pantomima” bu o‘yin juda qiyin mavzu tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan vaqtida foydalansa bo‘ladi. Yana bu “Hikoyalar zanjiri “ usuli orqali og‘zaki nutqini o‘stirishda katta yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda ingliz tiliga qiziqish uyg‘otish va darslarni qiziqarli tarzda o‘rgatishlarni rivojlantirish kerak. Bu borada ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash o‘quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, og‘zaki nutqini ravonlashtiradi, tez va aniq javob berish malakasini shakllantiradi. Ta‘lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi , barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak pedagogiklar innavatsion texnologiyalardan samarali foydalanishimiz yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishonova, G. Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent – 2006
2. Bekmurodova U.B “Ingliz tili o‘qitishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish” Toshkent – 2012yil.
- 3.M. Berdiyeva, S. Bo‘ronova Maktabgacha va boshlang‘ich talimda ingliz tili mashg‘ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikirlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yili 30 – sentabrdagi “ Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3955- sonly qaroi.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 – maydagi “ O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori PQ- 4312- sonli qarori.